



JADID ADABIYOTI NAMONDAYALARINING TA'LIM TARBIYAGA OID ASARLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Kadirova X.A.

CHDPU. Umumiy pedagogika kafedrasida dotsenti

Tayanch soʻzlar: jadidchilik, xalq, qatagʻon, jadidchilik harakati, jaded adabiyoti, maʼrifat, ozodlik.

Ключевые слова: джадидизм, народ, репрессии, джадидское движение, джадидская литература, просвещение, свобода.

Key words: jadidism, people, repression, jadidism movement, jadid literature, enlightenment, freedom.

Резюме:

Ushbu maqolada dunyo rivojlanishida taʼlim-tarbiyaning oid asarlarini ahamiyati, jadidlarning oʻrni, hozirgi yosh avlodga ularni yetqazish masalalari koʻrilgan.

Резюме:

В данной статье рассмотрено значение просветительских работ в мировом развитии, роль прошлого и вопрос их передачи нынешнему молодому поколению.

Summary:

In this article, the importance of educational works in the world development, the role of the past, and the issue of their transmission to the current young generation were considered.

Vatanining mustabidlar zulmidan ozod boʻlishini, millati farzandlarini sharafiga toʻlganlar qatorida koʻrishni orzulagan xalqimizning qalbi uygʻoq farzandlari - «jadid adabiyoti namoyandalari» bugun yana oʻz oʻquvchilari bilan yuzlashmoqda. Xalq maʼnaviyatini boyitish yoʻlida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida asarlarida kuyunib yozgan, bu borada fidoyilik koʻrsatgan, alaloqibat qatagʻonga uchraganlar haqida soʻz borarkan, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Choʻlpon, Abdulla Avloniy, Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, Isʼhoqxon Ibrat siymolari koʻz oldimizda gavdalanadi. Ular oʻz asarlarida koʻtargan muammolar hamon bizning qarshimizda boʻy koʻrsatib turibdi. Biz hamon «millatni uygʻotish uygʻonganlarning vazifasi» degan chorlovga munosib javob qaytarolganimiz



yo‘q. «Jadid adabiyoti namoyandalari» ruknida tayyorlangan kitoblarimizni o‘qir ekan, kitobxon o‘zini shu vatanning ongli fuqarosi, vatani va millati taqdiri uchun mas‘ul inson sifatida namoyon qilishga o‘zida jur‘at topadi. XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatlarining tepasida Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHO‘lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So‘fizoda, Xamza, Sadridin Ayniy, Tavallo singari xalqimizning o‘nlab fidoiy farzandlari, shoiru adiblari, davlat va siyosat arboblari turgan edilar. Behbudiy o‘z uyida ochilgan “usuli jadid” maktabining butun moddiy xarajatlarini o‘z gardaniga oladi «Padarkush»ning sahnaga qo‘ilishidan kelgan asosiy daromadni Samarqand, Qo‘qon, Namangan, Toshkent, Kattaqo‘rg‘on va boshqa shaharlardagi “usuli jadid” maktablariga hadya qildi, bu maktablar uchun o‘zi «Muntaxabi jo‘g‘rofiya umumiy» («Qisqacha umumiy jo‘g‘rofiya»), «Madxali jo‘xrofiya umro-qiy» («Ahli jo‘g‘rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo‘g‘rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha jo‘g‘rofiyasi»), «Kitobul aftol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyati islom» va «Yangi hisob» darsliklarini yaratdi va o‘z mablag‘iga matbaa ochib, maktab uchun darslik va qo‘llanmalarini tekinga bosib tarqatadi. Samarqanddagi birinchi musulmon kutubxonasi va qiroatxonaning asosiy mablag‘i ham uning hisobidan chiqqan edi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) A.Avloniy mehnatkash xalq farzandlarining kelajagiga butun borlig‘i bilan ishongan holda, ularning savodini chiqarish, sinfiy ongini o‘stirish maqsadida yangi usuli savtiya maktablari uchun darslik va qo‘llanmalar ham yaratdi. Ayniqsa, uning «Muallimi avval» (1911), «Muallimi soniy» (1912), «Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913), 6 qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she‘rlar» (1909-1917), «Maktab guliston» (1915) va boshqa asarlari o‘zbek milliy tarbiyashunosligi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu borada pedagog A. Avloniy hizmatlari beqiyosdir. Ayniqsa uning “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli yuqori sinflar uchun yozilgan “Tarbiya” darsligida bolalar, o‘smirlar uchun xulq, tarbiya haqida atroflicha yoritilib o‘tilgan. “Inson ikki narsda murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko‘z ila bor narsalarni ko‘rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur”. Bolalar tarbiyasi haqida so‘z borar ekan, adib asarini maktab yuqori sinf o‘quvchilari uchun go‘yoki darslik o‘rnida edi deya ta’riflaydi. Tarbiya ikki xillikdir: jasad(badan) tarbiyasi va fikr tarbiyasi bo‘ladi. Komil insonda har ikkisi mujassamligi haqida so‘z yuritadi. Xulqni ikkiga ajratadi: yaxshi xulqlar va yomon xulqlar. Har ikkisida rivoyatlar, hikoyatlar, hadislardan namunalar keltirib o‘tadi. Bola tarbiya qilinmas ekan, unga ta’lim nberishning

hech qanday ahamiyati yo'q ekanligi to'g'risida bot-bot eslatadi. Ilm va uning ortidan keladigan yaxshiliklarni sanab o'tar ekan, shijoatli bo'lishga, qo'rqmaslikka, say-g'ayratli bo'lishlikka chorlaydi. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish. Jadidlar o'z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to'planishar edi. Ularning ko'pchiligi shu davrning ko'zga ko'ringan ijodkorlari - shoir-u yozuvchilar edi. Ular o'z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910 - yillardayoq ma'rifat va ozodlik g'oyalari uning markaziy mavzuiga aylandi. Adabiyotga „millat“ va „vatan“ tushunchalari kirib keldi. Milliy she'rlarga rag'bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti O'zbekiston mustaqilligidan keyin milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti deb davrlashtirildi. Jadid matbuoti o'z vakillarining fikrlarini e'lon qilar ekan, xalqni «Har vaqt g'aflet uyqusidan uyg'otuvchi millat ongining ochqichi» ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda „Erk“, „Turon“, „O'qituvchilar jamiyati“ kabi uyushmalar paydo bo'ldi. Munavvarqori aytganidek, „Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haququqlarini ovrupoliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi“. Jadidchilik harakatining so'nggi yillari faol siyosiy kurashlar bilan ajralib turmaydi. Bu davrda sovet rejimi turli siyosiy ishlar („O'n sakkizlar guruhi“, „Inog'omovchilik“, „Qosimovchilik“, „Badriddinovchilik“ va boshqa) tuzib, milliy ziyolilarni ommaviy ravishda qatag'on qilishga kirishdi. 1929-yil noyabrda Munavvarqori boshchiligidagi 38 kishining qamoqqa olinishi (keyinchalik ularning soni 87 kishiga yetgan) bilan jadidchilik harakatiga kuchli zarba berildi. Jadidchilik harakati siyosiy ma'rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko'tarila oldi. Bu harakat hamda firqa a'zolari o'z faoliyati va dasturiga ko'ra, sho'ro adabiyotlarida aytilganidek, „bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya vakillari“ emas, balki Turkistonning barcha xalqlari taqdirini



o‘ylab ish ko‘rgan demokratik jarayonning namoyandalari edi. Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida tavallud topgan. Ijodkor o‘zbek xalqining san’ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta’limi ishlarini yo‘lga qo‘yishda kata xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste’dodli pedgogdir. U birinchilardan bo‘lib o‘zbek teatrini professional teatrga aylantirdi, matbuot, maorif sohasi rivojiga hissa qo‘shdi. U Turkistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Avloniyning mehnati yuksak qadrlanib unga o‘zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda, xodimlar tayyorlashda uzoq yillik mehnati uchun 1925-yilda “Mehnat qahramoni” unvoni, 1930-yilda “O‘zbekiston maorifi zarbdori” unvoni berilgan. Shuningdek, adib milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo‘shganligi uchun 2020-yil 30-sentyabr sanasida “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.2 Avloniy “Usuli jadid” maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darsliklar yaratdi. Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifga chorlaydi. XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning “Birinchi muallim” asari ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Avloniy uni yozishda Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” asariga suyanadi. Avloniyning “Ikkinchi muallim” asari “Birinchi muallim” kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobni shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atashimiz mumkin. Shuning uchun tarbiya maskani ham maktab ekani ta’kidlanadi. Avloniyning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari ichida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari katta ahamiyatga molik axloqiy va ta’limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi ilm-axloq haqida fikr haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, u bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib: “Agar bir kishi yoshligida nafs buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidir”3,-deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkibi to‘g‘risida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolalarning atrofidagi kishilar ahamiyatga ega. O‘zbek pedagogikasi tarixida Avloniy- birinchi “Pedagogika”, ya’ni bola tarbiyasining fanidir” deb ta’rif berganlar. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo‘limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.

4. Axloq tarbiyasi hamda uning ahamiyati xususida fikr yuritadi. “Tarbiyaning zamoni” bo’limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi. Avloniy, tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdir. “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”, 4-deb ta’kidlaydi. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatning qudratli bo’lishi avlodlar tarbiyasiga ko’p jihatdan bog’liq, deb ta’kidlaydi adib Tarbiya zurriyat dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog’cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan iborat bo’ladi. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo’ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog’ligi haqida g’amxo’rlik qilish lozimligini uqtiradi. “Turkiy guliston yoxud axloq “asari ma’rifatparvarlik g’oyalarini targ’ib qiladi. Adib kitobda ilm haqida shunday deydi: “ Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g’oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o’z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko’rsatur”5,-deydi.

Mahmudxo’ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog’ida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo’ja Solihxo’ja o’g’li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo’ja Urganchlik bo’lib, amir Shohmurod zamonida (1780 – 1785) Samarqandga kelib qolgan.

U dastlab Samarqand madrasasida, so’ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko’rgan. An’anaviy tahsil, so’ng esa o’z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko’tariladi. 1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do’sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Behbudiy safar chog’ida ko’p ajobiy xodisalarga guvoh bo’ldi. Xususan safarda u yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g’ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug’rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug’rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo’ladi. Mahmudxo’ja 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo’ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag’ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda Turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so’zlaydi. Behbudiy nazarida



ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. "Padarkush" shu tariqa maydonga keldi. Xullas, 1911-yilda yozilgan "Padarkush" dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi», degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko'rsatadiki, ish oson ko'chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: "Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatru sahnasiga chiqib, "masxarabozlik" qilsa", deb yozgan edi. "Padarkush" – o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif "Milliy fojia" atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n. U jaholat va nodonlik, o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani haqida hikoya qiladi.

Adabiyotlar:

1. Michael Ferber. (1999). A Dictionary of Literary Symbols. New York:Cambridge University Press.
2. F. Абдурахмонов., С. Мамажонов.(2002). Ўзбек тили ва адабиётиТошкент: "Ўзбекистон".
3. Amy L.Tigner and Allison Carruth. (2018). Literature and Food Studies.London and New York: Routledge Taylor & Francis Group.
4. B.Jamilova. (2020). O'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo".
5. Anita Mannur. (1992). Culinary Fiction. [Food in South Asian DiasporicCulture]. Philadelphia: Temple University Press.